QATAG‘ONLIK SIYOSATINING IJTIMOIY, SIYOSIY VA PSIXOLOGIK XARAKTERI

Xolmo‘minov Akbar Nurilla o‘g‘li, TDShU magistranti
e-mail: akbarxolmuminov07@mail.ru

Annotatsiya. Qatag‘on siyosatini ijtimoiy, siyosiy va psixologik jihatdan o‘rganilganda bu jarayonning umumiy xarakterida inson, u yashagan davr, ijtimoiy-siyosiy muhit, hudud, jamiyat, davlat boshqaruvi hamda unda ishtirok etuvchilar asos sifatida namoyon bo‘ladi. Mazkur maqolada ayni qatag‘on siyosatining davrlar kesimida o‘xshash va farqli tomonlari, davlat boshqaruvida ishtirok etgan shaxslarning qatag‘onga uchrashi hamda jamiyat buni qay yo‘sinda qabul qilganliklari, shuningdek, xalqning ko‘rsatgan irodasi yoritilgan. Bunda tegishli davr matbuot materillari va bir necha adabiyotlardan foydalanildi.

Kalit so‘zlar: siyosiy psixologiya, qatag‘on siyosati, siyosiy qatag‘on, iqtisodiy qatag‘on, ma’naviy-mafkuraviy qatag‘on.

СОЦИАЛЬНАЯ, ПОЛИТИЧЕСКАЯ И ПСИХОЛОГИЧЕСКАЯ ПРИРОДА РЕПРЕССИВНОЙ ПОЛИТИКИ

Аннотация. При изучении политики репрессий с социальной, политической и психологической точек зрения общий характер этого процесса проявляется как человек, период, в котором он жил, социально-политическая среда, территория, общество, государственное управление и тех, кто в нем участвует. В данной статье описываются сходные и разные стороны одной и той же политики репрессий на стыке времен, репрессии людей, причастных к государственному управлению, и то, как это было воспринято обществом, а также проявленная народом воля. При этом использовались материалы прессы соответствующего периода и литература.

Ключевые слова: политическая психология, политика репрессий, политическая репрессия, экономическая репрессия, морально-идеологическая репрессия.

THE SOCIAL, POLITICAL AND PSYCHOLOGICAL NATURE OF REPRESSIVE POLITICS

Abstract. When the policy of repression is studied from a social, political and psychological point of view, the general character of this process is manifested as a person, the period in which he lived, socio-political environment, territory, society, state administration and those who participate in it. This article describes the similar

and different sides of the same policy of repression in the cross-section of times, the repression of the people involved in the state administration, and how the society accepted it, as well as the will shown by the people. Press materials of the relevant period and some literature were used in this.

Keywords: political psychology, politics of repression, political repression, economic repression, moral-ideological repression.

Kirish. Inson tabiatan o‘z o‘tmishiga qiziqib yashaydi, uning ildizlarini ochishga va mohiyatini anglashga ehtiyoj sezadi. Bunday vaziyat ko‘pincha jamiyat tubdan o‘zgarayotgan tarixning tub burilish nuqtasida ko‘zga yaqqol tashlanadi. Chunki bunday vaziyatda insonda o‘zini anglash instinkti kuchayadi [1, b.10]. O‘tmishni baholashning eng to‘g‘ri va xolisona yo‘li unga hayot haqiqati, inson va jamiyat o‘rtasidagi bog‘liqlik, uyg‘unlik, kishilik hayotining uzluksiz taraqqiyoti zamirida yotgan munosabatlar, qarama-qarshiliklar, manfaatlar orqali baho berishdi. O‘z davrida, XX asrning 20-yillarida mintaqamizda vujudga kelgan hamda o‘rnatilgan marksistik mafkura insonning tarixiy tafakkuri va qarashlari xolis hamda erkin rivojlanishiga, shaxsning ozod yashashiga, shakllanishiga imkon bermadi. Natijada bir yoqlamlik tendensiyasi vujudga keldi, tarixiy voqelik soxtalashtirildi [1, b.15-16]. Sobiq Sovet ittifoqida qonunchilik hokimiyati yo‘qligi bois, siyosiy hukm – tazyiq o‘tkazish orqali boshqarish qizil mafkura zimmasiga yuklatilgan edi.

Dastlab davlat boshqaruvi sohasidagi qatag‘onga uchragan rahbar kadrlarning kelgusi taqdirlarini yoritishda siyosiy psixologiyaning o‘rni muhim. Siyosiy psixologiya siyosatchilarni, siyosatni, siyosiy xatti-harakatlarni psixologik tarafdan tushunishga va ijtimoiy-siyosiy nuqtai nazardan foydalangan holda psixologik jarayonlarni o‘rganishga yo‘naltirilgan fanlararo akademik siyosiy sohadir [2]. Siyosiy psixologiya e’tiqod, motivatsiya, aql, idrok, axborotni qayta ishlash, o‘rganish strategiyasi, sotsializatsiya va munosabatni shakllantirish ta’sirida bo‘lgan shaxslar va kontekslar o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liq munosabatlarni tushunishga qaratilgan yirik sohalardan hisoblanadi. Siyosiy psixologik nazariya va yondashuvlar ko‘plab kontekslarda qo‘llanilgan. Ya’ni, yetakchilik roli, ichki va tashqi siyosatni ishlab chiqish, etnik zo‘ravonlik, urush va genotsitdagi xatti-harakatlar, guruh dinamikasi va ziddiyat, irqchilik harakati, ovoz berishga munosabat, millatchilik va siyosiy ekstremizm kabilarni keltirib o‘tish mumkin. Ayni mazkur siyosiy psixologiya orqali qatag‘on siyosatining mazmun-mohiyatini, ushbu jarayondagi siyosiy shaxslarning rolini tarixiy tadrijda namoyon bo‘lishini ochib berish mumkin.

1930-1940-yillarda butun O‘zbekiston SSRda qatag‘onlik siyosatining mazmun-mohiyati bir xil xarakterli bo‘lgan. Bunda Markaz (Moskva), O‘z SSR hamda boshqa bir periferik hudud o‘zaro zanjir kabi bir biriga bog‘liq edi. XX asr 20-yillarida Ittifoq markazidagi siyosiy jarayonlarning ta’siri bevosita O‘z SSRda ham kuzatilgan. V.Lenin vafotidan so‘ng vorislikka da’vogarlar I.Stalin, L.Trotskiy, G.Zinovyev, L.Kanenev, N.Buxarin va boshqa sovet-partiya rahbarlari o‘rtasidagi siyosiy kurash natijasida jamiyatda rivojlanish va taraqqiyot yo‘lini tanlashdagi turli qarama-qarshi fikrlarda ziddiyatli vaziyatni yuzaga keltiradi. Bu jarayon bahs-munozara shaklidan keyinchalik amaliy qiyofani – stalincha qatag‘on siyosatini

shakllantirdi [3, b.428-429]. 1924-1925-yillarda O‘zbekistonni hududiy rasmiylashtirish jarayoni tugallandi. Jahon xaritasida SSSR tarkibidagi ittifoqdosh respublika bo‘lgan milliy O‘zbekiston SSR paydo bo‘ldi [3, b.312]. 1925-yil 6-12-fevralda Buxoro shahrida O‘zbekiston Kommunistik partiyasi tashkil etilib unga Vladimir Ivanov va Akmal Ikromovlar O‘zbekiston Kompartiyasi Markaziy Komiteti sekretarlari qilib saylanadi. Ahamiyatli jihati bu davrda milliy kadrlarning davlat boshqaruv bevosita jalb etilgan kishilar yosh jihatdan kichik bo‘lishgan. Xususan, A.Ikromov 27 yoshda, 29 yoshda edilar. O‘zbekiston SSR Kompartiyasi markazning qat’iy ko‘rsatmalari va mintaqadagi siyosiy tashkiloti bo‘lgan O‘rta Osiyo byurosining amaliy rahbarligi asosida tashkilqilinadi. Uning a’zolarining aksariyat qismi umuman savodsiz yoki chalasavod bo‘lgan, chunki bunday kishilarni boshqarish va ular orasida bolshevistik g‘oyalarni singdirish oson edi. Yoshlarning ongida bolshevistik mafkurani singdirish, ularni kommunistik jamiyat soldat (askar)lariga aylantirishda kommunistik yoshlar ittifoqi asosiy rol o‘ynadi. Komsomol partiya va uning tashkilotlariga yanada ko‘proq bo‘ysundirilgan edi. Bolshevistik partiya komsomolni “sinfiy dushman”ga qarshi kurashda o‘zining asosiy quroliga aylantirgan edi [3, b.395].

“Правда”, “Правда востока” gazetalarida e’lon qilingan maqolalardan maqsadi, talabi va ruhiyatidan kelib chiqqan holda “Qizil O‘zbekiston” gazetasi ham shunday maqolalar e’lon qilib borgan. Maqolalarda qatag‘on qilinishi kerak bo‘lgan insonlar haqida bo‘xton, fitna ma’lumotlar keltirilgan. O‘sha vaqtda Stalin uchun trotskiylar yuridik va amaliy jihatdan haqiqiy jinoyatchilar ekani tasvirlab kelingan ham [4, b.15]. O‘zbekiston Kompartiyasi saflarining “g‘oyafiy sofligi”ni saqlab qolish, uning ichida muxolifatchilikka yo‘l qo‘ymaslik partiyaning asosiy masalalaridan biri edi. Bu masalada partiya rahbariyati ikki xil og‘machilik bilan kurashish lozimligini ko‘rsatib bergan edi:

Partiya saflarini, uning apparatini milliylashtirish va mahalliy xalq vakillarining rahbarlik lavozimlariga tayinlashga qarshi oqim;

Mintaqada jamiyatni sovetlashtirish siyosatiga faol qarshi chiqqan hamda proletar diktaturasini mustamlakachilik siyosati bilan tenglashtirgan mahalliy xalq namoyondalari oqimi.

Yuqoridagi ikki oqimga “a’zo deb topilgan”lar esa “millatchi-shovinistlar”, “milliy burjuachilikning kuchayishiga harakat qiluvchilar” deb topilib ularga qarshi keskin kurash olib boriladi. Bu vaqtda “o‘n sakkizlar guruhi”, “inog‘omovchilik”, “qosimovchilik”, “najmiddinovchilik”, “kalonovchilik” guruhlari degan soxta ayblovlar bilan ko‘plab insonlar qatag‘on qilinadi. O‘zbekiston Kompartiyasi Markaziy Komiteti partiya ichidagi muntazam olib borilgan “tozalash” ishlari natijalarini 1936-yil sentabr oyidagi hisobotida O‘z SSR bo‘yicha 440 nafar partiya a’zosi, 589 nafar a’zolikka nomzodlar partiyadan o‘chirilganliklarini qayt etib o‘tgan edi [3, b.397-398].

Markaz tomonidan O‘z SSRdagi ijtimoiy-siyosiy vaziyatni nazorat qilib turish bo‘yicha O‘z SSR Kompartiyasi MK hamda viloyat va shahar partiya qo‘mitalarining ikkinchi sekretari lavozimi mavjud bo‘lib, ular asosan markaz tomonidan tayinlangan rus yoki slavyan millatiga mansub shaxslar bo‘lgan. Ular

amalda ikkinchi sekretar qarorlar qabul qilinishida hal qiluvchi ovozga ega bo‘lgan. Bu kabi omillar keyinchalik 30-yillarda milliy siyosiy elitaning qatag‘on etilishiga ham olib keldi. Bolsheviklarning siyosiy hokimiyatdagi zo‘ravonliklari siyosiy muholifatga dushmanlik kayfiyatida bo‘lishi, sog‘lom tanqidni qabul qilmasliklari ham keyinchalik ro‘y bergan ommaviy qatag‘onlarga sabab bo‘ldi [3, 400-401]. Yana bir jihat tarixiy jarayonida yuzaga chiqqan o‘zbek tilini ish yuritish tizimida amaliyotga joriy etish va boshqaruv kadrlarini “o‘zbeklashtirish” ko‘p hollarda atayin sustlashtirilgan. Bunga sabab respublikaning o‘sha vaqtdagi siyosiy va davlat rahbariyati markaz tomonidan bo‘ladigan qatag‘ondan cho‘chir edi, hamda O‘z SSRda milliy texnik ziyolilar yetarli emas edi. XX asr 20-30-yillaridagi o‘zbek siyosiy elitasi shakllanishining asosiy xususiyatlaridan biri albatta kadrlarning kommunistik partiya sovet davlati siyosatiga xizmat qiluvchi, ular g‘oyalarining tartibotchisi etib shakllantirilganligidir. Nomenklatura tizimida rahbar kadrlarni tayyorlash va ishga joylash (quyidan yuqoriga, kam muddatli va tez o‘zgaruvchi) tizimining joriy etilishi ortidan bunday talablardan o‘tib olgan rahbar shaxslar lavozimlaridan ajralib qolmasliklari uchun partiyaning barcha ko‘rsatmalarini to‘la-to‘kis ado etgan.

O‘zbekiston SSR davlat xavfsizligi idoralarini XX asr 20-30-yillarda doimo yevropa millati vakillari, asosan, armanlar boshqargan. Quyi bo‘g‘inlarda ham deyarli mahalliy millat vakillari ishlamagan. Ayni 20-yillari oxirida sovet davlatida sotsializmning butun fronti bo‘lgan hujumi boshlandi. Bu jarayon 30-yillar oxirigacha davom etgan tadbirda eng katta eng zarba siyosiy elitaga berilgan edi [3, b.424]. Dushman sifatida “fosh qilingan” rahbar kadrlarga “dushmanlar, yollangan fashist, o‘n troitskiy blokining irodasi va ko‘rsatmalarini bajaruvchisi” sifatida jazolangan. Ularga

O‘zSSR Jinoyat Kodeksining 57, 58, 63, 64, 67-moddalari bilan ayblovlar e’lon qilinadi:

Sovet tuzumiga qarshi aksilinqilobiy harakati;

O‘zbekistonda Ittifoqdan ajratib olish;

Kapitalistik mamlakatlar mustamlakasiga aylantirish;

Terroristik harakatlar orqali respublika iqtisodiyotini izdan chiqarish kabilar.

Bu vaqtda O‘z SSRda ham o‘ziga xos siyosiy elita ham shakllantirilgan edi. Ya’ni, qatag‘on siyosatidan so‘ng markazga tobelik faqatgina markaz ko‘rsatmalarini respublika manfaatlariga moslashga bo‘lgan harakatlar bilan alohida ajralib turadi. Sovet hokimiyatining qatag‘on siyosati siyosiy, iqtisodiy va ma’naviy-mafkuraviy sohalarda o‘tkazildi:

Siyosiy qatag‘on – qizil terror, saylov huquqidan mahrum qilish, quloqlashtirish, surgun, katta qirg‘in va deportatsiya qilish bilan;

Iqtisodiy qatag‘on – soliq, majburiy to‘lovlar, iqtisodiy faoliyatni cheklash shaklida;

Ma’naviy-mafkuraviy qatag‘on – milliy, diniy qadriyatlarni cheklash, madaniy merosni yo‘q qilish, senzura va boshqalar shaklida olib boriladi.

Qatag‘on siyosati – bu muammoni nafaqat tarixiy, mafkuraviy, balki huquqiy, falsafiy, ma’naviy va iqtisodiy jihatdan tahlil qilish mumkin [3, b.426]. Shukrullo

ham 1950-yil boshlarida qatag‘on jabrini tortgan insonlardan biri edi. Yozuvchi “Kafansiz ko‘milganlar” romanida qamoqda o‘z boshidan kechirgan qiyinchiliklarni, turli adolatsizliklarni tasvirlagan [5]. Yozuvchini qamoqqa olish jarayonida xalq dushmani bo‘lib qamalib ketgan Akmal Ikromov, Fayzulla Xo‘jaev, Abdulla Qodiriy, Cho‘lpon, Usmon Nosirlarning kitoblari, hattoki ularning nomlari yozilgan gazeta va jurnallarni tintuv yo‘li bilan qidirishgan. Tarjimai holida esa “otasi dindor, domla bo‘lgan, o‘zi sovetlarga qarshi targ‘ibot bilan shug‘ullangan” yoziladi. Tarjimai holni buzib yozishdan maqsad “butun avlod-ajdodi bilan sovetlar dushmani” degan aybni bo‘yniga qo‘yish bo‘lgan. Bunda turli xil qiynoq yo‘llaridan ham foydalanishgan. 1937-yil 17-iyunda F.Xo‘jayevga turli bo‘xtonlar qilingan edi. O‘zbekiston Kompartiyasining VII syezdida F.Xo‘jayevga Farg‘ona delegatsiyasining vakillari uni ijtimoiy kelib chiqishi boy tabaqadan deb ta’na toshini otishgan [3, b.454]. A.Ikromov 1937-yil 20-sentabrdagi O‘zbekiston Kompartiyasi MKning II plenumidan so‘ng hibsga olinadi. O‘z vaqtida O‘z SSR Kompartiyasi Markazko‘mining ikkinchi sekretari hisoblangan Lomonosov va ideologiya sekretari Raviq Nishonov faoliyatida ham bir umumiy jihat mavjud edi. R.Nishonovning vazifasi og‘ir edi. U Toshkentning Navoiy ko‘chasida sodir etilgan bezorilikka nisbatan “partiyaviylik va sinfiy nuqtai nazardan baho berib, millatchilik ildiziga bolta urishda” tashabbuskor bo‘lib, Markazning Toshkentdagi vakillari ko‘ziga yaxshi ko‘rinishi lozim ham edi. 1917-yildan buyon qatag‘on siyosatiga ayni shu narsa sabab bir sabab sifatida bo‘lib keldi.

Bu davrda matbuot ham senzura ostida edi. Boshqa gazeta nashrlari kabi “Qizil O‘zbekiston” gazetasi ham ayni boshqa bir rus matbuotidagi gazetalardagi xabarlarni o‘zbek tilida chop etib borgan [6]. Ayni hukumat vakillari turli ayblar bilan qamalganliklaridan so‘ng ko‘pchilik kishilar bu ikki shaxsni qoralab chiqishadi. Bu kabi holatlarni turli miting va namoyishlardan tortib oddiy arxiv foto hujjatlarida ularning yuzlari o‘chirilgan holatlarda ham ko‘rishimiz mumkin. Mazkur davrga oid matbuot materiallariga nazar solganimizda ularga nisbatan “qishloq xo‘jaligi sohasidagi katta qo‘poruvchilik, buzg‘unchilik ishlari yuzasidan A.Ikromov va F.Xo‘jayev (aybdorlar)lar orqali antisovet fitna markazi bilan blok tuzgan millatchi tashkilotlar ish ko‘rib kelganlar” [7], degan ayblov xulosasiga duch kelamiz. Shuningdek, F.Xo‘jayev o‘z iqrorida, “… biz sovet hokimiyati bilan qurolli kurashish uchun kadrlar tayyorlash bilangina kifoyalanib qolmadik, balki biz SSSRning quvvatiga putur yetkazish maqsadida hozirdan boshlab aktiv harakatlar qildik” deb ta’kidlagan jumlalarga duch kelamiz (tom 13, ish varog‘i 66).

O‘zbekiston SSRda buzg‘unchilik tadbirlarini keng o‘tkazilganini aybdor A.Ikromov ham tamomila ta’kidlab, “o‘ng trotskiylar bloki” o‘zining oldiga quyidagi vazifalarni qo‘yganini aytib beradi:

O‘zbekistonda qurolli qo‘zg‘alonlar tayyorlash ishlarini qizitib, intervensiya paytida ishga solish;

Buzg‘unchilik oqibatlari bilan mehnatkashlarda sovet hokimiyatidan norozichilik tug‘dirish uchun va kerak paytda qurolli qo‘zg‘alonlar ko‘tarishni uyushtirishga qulay zamin tayyorlash uchun xalq xo‘jaligining hamma tarmoqlarida buzg‘unchilik va qo‘poruvchilik ishlarini keng qizitish kabilar.

A.Ikromov "… bizning fikrimizcha qo‘poruvchilik, buzg‘unchilik ishlari SSSR mudofaa quvvatini mustahkamlashga to‘siq bo‘lishi lozim edi" deb ta’kidlagan (tom 12, ish varog‘i 95-96). Matbuot sahifalarida "F.Xo‘jayev tashkilot haqida, A.Ikromov esa sovet hokimiyatiga qarshi kurash uchun kadrlarni quloqlarning qoldiqlari, ruhoniy va sobiq bosmachilar tashkil etib boradi degan" [7] soxta xabarlarni uchratish mumkin. "Qizil O‘zbekiston" gazetasining ayni 50-sonida "Butun xalq talabi" sarlovha ostida bir maqola berib o‘tilgan. Unda SSSR Soyuzi prokuraturasining "o‘nglar va trotskiychilar bloki" deb atalgan fitnachi gruppa ishi ustidan tergov tugaganligi to‘g‘risida axborotni Toshkentdagi Ilich nomli zavod ishchilari,
injener-texnik xodimlar mitingida o‘qib eshittiriladi. So‘zga chiqqan Kulishev, Sa’dullayev, Makarov, Musayev va Ismoilov so‘zlarida "dushman"ga g‘azabda bilan to‘lib toshgan edi: "Go‘zal Vatanimizni, uning baxtli xalqlarini kapitalizmga sotmoqchi bo‘lgan va bizni yana qullikka solishni istagan bu yovuz dushmanlarga faqatgina bir chora – otib o‘ldirishdan boshqa chora bo‘lishi mumkin emas. Bizning bu talabimiz butun xalqimizning yagona talabidir", degan chaqiriqlari bo‘lgan. Bundan tashqari bu vaqtda O‘zbekiston SSRning butun hududlarida turli xildagi chiqishlar, mitinglar avj olgan edi. Shunday chiqishlardan SelMash zavodida, Oxunboboyev nomidagi artelda, Stalin nomli kon zavodida, 4-non kombinatida, O‘zPoligrakombinatida o‘tkazilganliklarini keltirib o‘tish mumkin. Matbuot materillaridan bir nechtasida, jumladan, Samarqand mehnatkashlarining mitinglari - korxona, o‘quv yurtlari, kolxoz va "Hujum" fabrikasida [8], O‘zbekiston SSR yozuvchilar uyushmasida – "Qutirgan itlarga o‘lum", "M.Gorkiy uchun juda qimmat xun to‘lajaklar" [9], O‘z SSR Fanlar Komiteti (Fanlar Akademiysi)da "Fashistlar niyatlariga hech vaqt yetolmaydilar" [10] Skandinaviya (Norvegiya, Anderpen) matbuotida ham yoritilgan [11]. Moskvada bo‘lib o‘tgan sudda ishchilar, qizil armiya vakillari, sovet va chet el matbuotchilari qatnashishgan. So‘roq vaqtida aybdor Xo‘jayevdan "Milliy Ittihod" tashkilotiga a’zo bo‘lganligi (1920-yillar), "milliy sayuz"da O‘zSSRni Afg‘oniston kabi "buffer davlat"ga aylantirishda, O‘z SSR millatchilar bilan aloqasi borligida (A.Ikromov bilan, 1925-yillarda), Moskva shahriga safarda Kirov bilan suhbatda bo‘lganligi kabilar qo‘shib ayblanadi. Mazkur sudda 500 dan ortiq kishilar ishtirok etgan [12]. 1938-yil 12-mart kuni F.Xo‘jayev va A.Ikromovlarning so‘ngi so‘zi eshitiladi.
13-mart sanasida hukm e’lon qilinadi. RSFSR Qonuni bo‘yicha qo‘yilgan aydorlik moddalari – 58-moddaning 1a, 2, 7, 8, 9, 11 bandlari hamda 319-320-moddalari bilan o‘sha davr matbuoti tilidan aytganda "Xalqimizning talabini ifodalovchi hukm" ijro etilgan edi. Ammo bu kabi ishlarning barchasi atay uyushtirilganligi, so‘roq anketalari soxtalashtirilganligi haqida yetarli ma’lumotlarga ega emasmiz. Chunki bu kabi ma’lumotlar hozirda tegishli organlarda sirli holatlarda saqlanmoqda yoki yo‘q qilib yuborilgan.

1930-yillarda qatag‘on siyosatidan jabrlangan rahbar kadrlar haqida taniqli olim R. Shamsutdinov va D. Xamidov "Vodiynoma" jurnalining bir sonida aynan qatag‘on etilgan A. Ikromov va uning oqlanishiga doir ma’lumotlar keltirib o‘tgan edi [13]. Hozirgi paytda Ikromovning sovetlarga qarshi faoliyati haqidagi dastlabki

tergov va o‘zining sudda bergan ko‘rsatmalari haqiqatga to‘g‘ri kelmasligi aniqlangan. Masalan, Ikromov O‘zbekiston SSR NKVD, SSSR prokurori va SSSR NKVDda bir necha marta bo‘lgan so‘roqlar paytida 1935-yilda Antipov orqali o‘nglar (konservatorlar) bilan aksilinqilobiy aloqa o‘rnatganligi, undan O‘zbekistonda aksilinqilobiy faoliyatni yo‘lga qo‘yish haqida barcha ko‘rsatmalarni olganligi to‘g‘risida guvohlik bergan. Tergov tugagan kuni Ikromov bu gaplarni o‘zgartirib, 1933-yilda Buxarin orqali o‘nglar bilan aloqa o‘rnatganini, biroq Antipov boshchiligida O‘zbekistonda aksilinqilobiy ishlarni amalga oshirganini bildirgan. Ikromovning bu ko‘rsatmalari yolg‘ondir, chunki Antipov hech qachon o‘nglarning sovetlarga qarshi tashkilotida bo‘lmagan va aksilinqilobiy faoliyati uchun asossiz hukm qilingan, shuning uchun u keyinchalik 1956-yilda reabilitatsiya qilingan. Ikromovning aksilinqilobiy faoliyatda Lobov, Kodatskiy, Mixaylov va Shadunets bilan aloqadorligi, Boltaboyev, Karimov, Ramzi, Boltayev, Islomov, Islomov, Usmonov, Hasanov va boshqalar orqali O‘zbekistonda dushmanlik ishlarini olib borganligi haqidagi guvohligi ham e’tiborga loyiq emas. Puxta tekshiruv yo‘li orqali belgilanganidek, Lobov, Kodatskiy, Mixaylov, Shadunets, Boltaboyev, Islomov, Islomov, Usmonov va Hasanovlar soxtalashtirilgan materiallar bo‘yicha asossiz sudlanib, hozirgi kunda to‘liq reabilitatsiya qilingan. Karimov va Ramzi sud jarayonida aksilinqilobiy faoliyatda o‘z aybini tan olmagan va Ikromovning guvohligi ham tasdiqlanmagan. Buxarin va Rikovlarning Ikromovning aksilinqilobiy faoliyati haqidagi guvohliklari ishonchli emas, chunki ular Antipov, Lobov, Kodatskiy, Kabakov, Razumov, Rudzutak va boshqalarni “o‘ng trotskiychilarning bloki” a’zolari deb ataydilar. Tekshiruv jarayonida bu shaxslar “o‘ng trotskiychilar bloki”da ishtirok etganliklari uchun noqonuniy ravishda sudlanganliklari ham aniqlangan. Ikromovning xorijiy razvedka xizmatlari bilan hamkorligi bo‘yicha ayblanishi mahkum o‘zining aybsizligini isbotlay olmaganligi, guvohlik ko‘rsatolmaganligiga asoslanadi. Yuqoridagilarni hisobga olgan holda SSSR prokuraturasi va SSSR Ministrlar Soveti huzuridagi Davlat xavfsizligi qo‘mitasi 1938-yil 2-13-mart kunlari SSSR Oliy sudi Harbiy kollegiyasi hukmini bekor qilish uchun SSSR Oliy sudiga protest bilan kirish va Akmal Ikromovga nisbatan jinoyat dalillari yo‘qligi uchun ish tugatilishi mumkin deb hisoblaydilar.

Umuman olib qaralganda bu jarayon puxta tarzda oldindan rejalashtirilgan edi, pirovardda ham asli shunday yakun topdi. Bu esa har bir olingan manba, hujjat yoki adabiyotlarni ko‘rib chiqishimizda ularga doimo tanqidiy fikrda bo‘lishimizni taqozo etadi. ham qatag‘on qurboni bo‘lgan kishilarning sudga doir ishlarini qayta ko‘rib chiqilmoqda va yurtdoshlarimizning nomlari “qora ro‘yxat”lardan chiqarilmoqda [14].

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Vodiynoma (Tarixiy meros) // Ijtimoiy-tarixiy, ilmiy va ommabop jurnal. 2021. № 3 (22).

2. Jo‘rayev N. Tarix falsafasining nazariy asoslari. – Toshkent: Ma’naviyat, 2008. – 463 b.

3. “Qizil O‘zbekiston”, 1938-yil 50, 51, 52, 53, 59-sonlari. “Правда”, “Фрунзевец” gazetalari 1938-yil fevral-mart sonlari.
4. O‘zbekiston tarixi (1917-1991 yillar). K. (O‘zbekiston 1917-1939 yillarda). – Toshkent, “O‘zbekiston”, 2019. – 560 b.
5. Shamsutdinov R. Qatag‘on qilingan yurtdoshlarni xotirlab. – Toshkent, Akademnashr, 2018. – 304 b.
6. Shukrullo. Kafansiz ko‘milganlar. – Toshkent: Sharq, 2007. – 170 b.
7. O‘z SSR FK raisi prof. Qori Niyozov nutqi.
8. www.gazeta.uz.
9. www.wikipedia.org.